



UDK:159.9(575.1)

Aziza ODILJONOVA,
Andijon davlat universiteti dotsenti
E-mail: odiljonova89@gmail.com

ADU dotsenti, PhD O. Qodirova taqrizi asosida

THEORETICAL METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING CREATIVE QUALITIES IN STUDENTS

Аннотация

This article analyzes the theoretical and methodological foundations that influence the manifestation of students' creative traits. Various definitions of the concept of creativity, its psychological and pedagogical aspects, as well as factors influencing the formation of creativity are considered. At the same time, methods and techniques for developing creativity, approaches that serve to increase students' creative thinking abilities are discussed. The article examines the views of such scientists as J. Gilford, E. Torrens, S. Mednik on creativity and their application in the modern education system. The study pays special attention to the criteria for diagnosing creativity and assessing it.

Key words: Creativity, creativity, creativity in students, creative thinking, psychological characteristics, methodological foundations, creative approach, educational process, creative ability, innovative education.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методические основы, влияющие на проявление творческих качеств учащихся. Рассматриваются различные определения понятия креативности, ее психолого-педагогические аспекты, а также факторы, влияющие на формирование креативности. При этом обсуждаются методы и приемы развития креативности, а также подходы, способствующие повышению навыков творческого мышления учащихся. В статье рассматриваются взгляды таких ученых, как Дж. Гилфорд, Э. Торренс и С. Медник, на креативность и их применение в современной системе образования. Исследование посвящено диагностике креативности и критериям ее оценки.

Ключевые слова: Креативность, креативность, креативность учащихся, творческое мышление, психологические особенности, методические основы, творческий подход, образовательный процесс, творческие способности, инновационное образование.

TALABALARDA KREATIVLIK XUSUSIYATLARI NAMOYON BO'LIISHINING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada talabalar kreativlik xususiyatlarining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi nazariy va metodologik asoslar tahlil qilinadi. Kreativlik tushunchasining turli ta'riflari, uning psixologik va pedagogik jihatlarini, shuningdek, kreativlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, kreativlikni rivojlantirish usullari va metodlari, talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar muhokama qilinadi. Maqolada J. Gilford, E. Torrens, S. Mednik kabi olimlarning kreativlik haqidagi qarashlari va ularning zamonaviy ta'lim tizimida qo'llanilishi ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda kreativlik diagnostikasi va uni baholash mezonlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, ijodkorlik, talabalarda kreativlik, ijodiy fikrlash, psixologik xususiyatlar, metodologik asoslar, kreativ yondashuv, ta'lim jarayoni, ijodiy qobiliyat, innovatsion ta'lim.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda innovatsion fikrlash va kreativ yondashuvga ega kadrlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" (2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni) hamda "Ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" (2019-yil 29-apreldagi PQ-4319-son Qarori) hujjatlarida ta'lim tizimini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish va talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kreativlik shaxsning yangilik yaratish, mavjud stereotiplarni yengib o'tish va nostandart yechimlarni topish qobiliyatini aks ettiradi. Shu bois, bugungi kunda kreativlik nafaqat shaxsiy rivojlanish omili, balki iqtisodiy va texnologik taraqqiyot uchun ham muhim hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va kreativ yondashuvni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar bu boradagi tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi davrda kreativlik tushunchasi turli nazariy yondashuvlar nuqtai nazaridan o'rganilmoqda. V.N. Drujinin kreativlikni tadqiq qilishda to'rtta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatadi:

Ijod mahsulini o'rganish (uning miqdoriy va sifat jihatlarini, shuningdek, ahamiyatini);

Kreativlikni muammolarni stereotipik yondashuvlardan chetlab echish qobiliyati sifatida tushunish;

Kreativlikni shaxsiy xususiyatlar bilan bog'lash;

Kreativlikni aqliy jarayon sifatida tahlil qilish, ya'ni ijodiy jarayon bosqichlari va turlarini ajratish [2].

Keng qabul qilingan qarashga ko'ra, tashqi rag'batlantirishsiz amalga oshiriladigan ijodiy transformatsion faoliyat maxsus ijodiy qobiliyatlarga asoslanadi, bu esa insonning har qanday faoliyat turida namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv J. Gilford, E. Torrens, J.A. Ponomarev va S. Mednik kabi olimlarning ilmiy ishlari orqali rivojlangan.

J. Gilfordning asarlari e'lon qilinganidan so'ng, ijod umumiy kognitiv ijodiy qobiliyat sifatida qarala boshladi. U turlicha fikrlash qobiliyatini kreativlikning asosi deb hisoblagan. Unga ko'ra, ijodiy fikrlash muammoni hal qilish usullarini o'zgartirish qobiliyatiga asoslanadi [5].

Gilford kreativlikning to'rtta asosiy parametrlarini ajratgan:

- 1) ravonlik;
- 2) moslashuvchanlik;
- 3) o'ziga xoslik;
- 4) rivojlanish.

Biroq, zamonaviy tadqiqotlar natijasida uning yondashuvi tor doirada qabul qilinadigan nazariya sifatida ko'rilmog'da. Ushbu nuqtai nazarni D.B. Bogoyavlenskaya va R. Sternberg qo'llab-quvvatlagan. Gilford tomonidan qo'llanilgan matematik metodlar ham keskin tanqidga uchragan bo'lib, uning natijalari

boshqa omil modellar orqali tushuntirilishi mumkinligi qayd etilgan [6].

E. Torrens Guilford g'oyalari rivojlantirib, kreativlikni kamchiliklar, bilimlardagi bo'shliqlar va disgarmoniyaga sezgirlik sifatida ta'riflagan. Ba'zi tadqiqotchilar Guilford va Torrens tomonidan ishlab chiqilgan metodlarni kreativlikni o'lchashga emas, balki aqlni tekshirishga qaratilgan deb hisoblashadi. Natijada, ushbu testlar kreativlik emas, balki intellektni o'lchashga yaqinlashib borgan [8]. Tadqiqotchilar, jumladan, Heausler & Tompson, Treffinger tomonidan ta'kidlanganidek, ijodiy fikrlash parametrlarining (ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik va ishlab chiqish) mustaqil omillar sifatida qaralishi shubha ostiga olingan. Hozirga qadargacha kreativlik testlari faqat ravonlik omilini o'lchash imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlagan [7].

S. Mednik esa kreativlikni psixik jarayonlar bilan bog'lagan. Unga ko'ra, kreativlik – bu alohida elementlarni vazifaga muvofiq holda yangi kombinatsiyalarga qayta birlashtirish jarayonidir. Mednik tomonidan ishlab chiqilgan RAT (Remote Association Test) testi boshqa kreativlik testlariga qaraganda intellekt, ayniqsa, og'zaki intellekt bilan kuchli bog'liqlikka ega bo'lib, ko'proq konvergent fikrlashni o'lchaydi [9].

Turli tadqiqotchilar fikricha, odatiy kreativlik testlari insonning haqiqiy kasbiy faoliyatidagi ijodiy samaradorligini oldindan aniqlash uchun yetarli asos bo'la olmaydi. M.A. Xolodnaya ta'kidlaganidek, "javobning nostandartligi yoki kamdan-kamligi mutlaqo turli psixologik hodisalarga asoslanishi mumkin: ba'zan bu subyektning ijodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini aks ettirsa, ba'zan esa intellektual qobiliyatsizlik yoki shaxsiy ortiqcha kompensatsiya belgisi bo'lishi mumkin" [10]. V.N. Drujinin ham shunga o'xshash fikr bildirgan bo'lib, eng ijodiy deb topilgan javoblar ba'zan be'mani yoki bog'liq bo'lmagan so'zlar to'plamidan iborat bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan [2].

Ushbu tadqiqotlar kreativlikni tahlil qilishda turli yondashuvlarning mavjudligini ko'rsatadi hamda uning turli aspektlarini baholash va o'lchash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning davom etishi zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalar kreativlik darajasini baholash maqsadida mashhur psixologik diagnostika

Jadval 1. Torrens va Guilford testlari mezonlari natijalarining o'zaro bog'liqligi (Pirson bo'yicha korrelyatsiya koeffitsiyentlari)

Mezonlar	Ravonlik	Moslashuvchanlik	Originallik	Rivojlanganlik
Ravonlik	1.00	0.68	0.55	0.47
Moslashuvchanlik	0.68	1.00	0.72	0.61
Originallik	0.55	0.72	1.00	0.65
Rivojlanganlik	0.47	0.61	0.65	1.00

Yuqoridagi jadvalda Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentlari (r) keltirilgan bo'lib, ular talabalar kreativlik mezonlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi:

Ravonlik va moslashuvchanlik ($r = 0.68$) o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud bo'lib, bu kreativ fikrlashda muammolarni turlicha yondashuv bilan hal qilish qobiliyatining muhimligini ko'rsatadi.

Moslashuvchanlik va originallik ($r = 0.72$) o'rtasida yuqori bog'liqlik aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, nostandart fikrlar yaratish qobiliyati fikrlashning moslashuvchanligi bilan bevosita bog'liq.

Originallik va rivojlanganlik ($r = 0.65$) o'rtasidagi bog'liqlik shuni ko'rsatadiki, ijodiy g'oyalarning chuqurroq ishlab chiqilishi ularning original bo'lishiga ta'sir qiladi.

Ravonlik va rivojlanganlik ($r = 0.47$) o'rtasidagi bog'liqlik o'rtacha darajada bo'lib, kreativ javoblarning miqdori ularning chuqur tafsilotlarga ega bo'lishini to'liq belgilab bermasligini anglatadi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalar kreativlik darajasi o'zaro bog'liq mezonlardan tashkil topgan bo'lib, moslashuvchanlik va originallik eng muhim omillar hisoblanadi. Korrelyatsion tahlil natijalari asosida kreativlikni

usullari – Torrens ijodiy fikrlash testi va Guilford divergent fikrlash testi qo'llanildi. Ushbu testlar talabalar kreativlik ko'nikmalarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

E.P. Torrens tomonidan ishlab chiqilgan ushbu test kreativ tafakkurning asosiy jihatlari – muammoni ilg'ash, nostandart echimlarni izlash va yangilik yaratish qobiliyatlarini baholashga qaratilgan. Test davomida talabalar quyidagi mezonlar bo'yicha baholandi:

Ravonlik – berilgan topshiriqlarga javoblar soni.

Moslashuvchanlik – fikrlashning moslashuvchanligi, ya'ni muammoni turli nuqtai nazardan hal qila olish qobiliyati.

Originallik – nostandart va kutilmagan yechimlarni topish darajasi.

Rivojlanganlik – tafsilotlarga e'tibor qaratish va g'oyalarni batafsil izohlash qobiliyati.

Test natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori kreativlik darajasiga ega talabalar o'z javoblarida original va moslashuvchan fikrlash qobiliyatlarini namoyon etdilar. O'rtacha va past darajadagi talabalar esa odatiy yoki oldindan taxmin qilinadigan echimlarni taklif qilishga moyil bo'ldilar.

J. Guilford tomonidan ishlab chiqilgan test talabalar kreativligini baholashda muhim vosita bo'lib, u asosan divergent fikrlash qobiliyatlarini o'lchashga qaratilgan. Guilford testing asosiy parametrlari:

Divergent fikrlash tezligi – muammoni hal qilish bo'yicha berilgan javoblarning soni.

Moslashuvchanlik – har xil kategoriyalardagi muammolar uchun turli usullarni qo'llash qobiliyati.

Originallik – kam uchraydigan va noodatiy fikrlarni ilgari surish qobiliyati.

Mukammallik – taklif qilingan g'oyalarning mukammalligi va tafsilotlarga boyligi.

Test natijalariga ko'ra, yuqori kreativlik darajasiga ega talabalar berilgan topshiriqlarga ko'plab original yechimlarni taklif qilishdi. Moslashuvchanlik va originallik bo'yicha yuqori ball to'plagan talabalar o'z g'oyalari izchil bayon eta oldilar. O'rtacha kreativlik darajasidagi talabalar esa odatiy va an'anaviy yechimlarga suyanishgan.

Tahlil va natijalar. Talabalarda kreativlik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha Torrens va Guilford testlari natijalarining Pirson korrelyatsion tahlili:

(Pirson bo'yicha korrelyatsiya koeffitsiyentlari)

rivojlantirishda divergent tafakkur mashqlaridan foydalanish muhimligi ta'kidlanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda kreativlik xususiyatlarining shakllanishi va rivojlanishi turli omillarga bog'liq bo'lib, ularga shaxsiy xususiyatlar, ta'lim muhiti va pedagogik yondashuvlar katta ta'sir ko'rsatadi. Kreativ tafakkurning asosiy tarkibiy qismlari bo'lmish ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va rivojlanganlik talabalar ijodiy fikrlash qobiliyatlarini baholashda muhim mezonlar hisoblanadi.

Talabalar kreativ fikrlash darajasi ularning individual psixologik xususiyatlari va ta'lim jarayonida rag'batlantirilish darajasiga bog'liq.

Guilford va Torrens testlari natijalari kreativlikning turli jihatlarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, moslashuvchanlik va originallik o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud bo'lib, bu ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda kreativlikni rag'batlantirish talabalar muammolari hal qilish qobiliyatini oshirish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va innovatsion fikrlashga yo'naltirish imkonini beradi.

Kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim metodlarini keng qo'llash, dars jarayonlarida ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi topshiriqlardan hamda talabalarni erkin fikrlashga va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga yo'naltiruvchi interfaol metodlardan foydalanish samarali natija beradi.

Talabalarning kreativlik darajasini baholash va rivojlantirish tizimini shakllantirish, talabalar kreativligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar va kurslarni ishlab chiqish lozim. Kreativ tafakkur mezonlarini baholash uchun ilmiy asoslangan test va metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim muassasalarida kreativlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, talabalar uchun mustaqil tadqiqot va loyihalar bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Shu bilan birga innovatsion markazlar, kreativ laboratoriyalar va startap platformalarini tashkil etish orqali ijodiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda kreativ pedagogik metodlarni qo'llash bo'yicha maxsus trening va seminarlar tashkil etish va ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va interfaol vositalarni keng qo'llash tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Kreativlikni rag'batlantirish orqali talabalarning shaxsiy va professional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Bogoyavlenskaya, D. B. (2007). *Psixologiya tvorchestva* [Psychology of Creativity]. Moscow: PER SE.
2. Drujinin, V. N. (2007). *Psixologiya obshchikh sposobnostey* [Psychology of General Abilities]. St. Petersburg: Piter.
3. Heausler, N. L., & Thompson, B. (1988). "Structure of the Torrance Tests of Creative Thinking." *Educational and Psychological Measurement*, 48(2), 463–468.
4. Hocevar, D. (1979). "The Unidimensional Nature of Creative Thinking in Fifth-Grade Boys and Girls." *Educational and Psychological Measurement*, 39(3), 725–735.
5. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. New York: McGraw-Hill.
6. Sternberg, R. J. (2005). Creativity or creativities? *International Journal of Human-Computer Studies*, 63(4-5), 370-382.
7. Treffinger, D. J. (1986). *Research on Creativity: A Review of Selected Trends*. Sarasota, FL: Center for Creative Learning.
8. Torrance, E. P. (1962). *Guiding Creative Talent*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
9. Mednick, S. A. (1962). "The associative basis of the creative process." *Psychological Review*, 69(3), 220–232.
10. Xolodnaya, M. A. (2002). *Kognitivnye stili: O prirode individual'nogo uma* [Cognitive styles: On the nature of individual intelligence]. Moscow: Per Se.